

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 378. 091.31-059.1:811.111

SHERMUXAMEDOVA DILNOZAXON RAXIMDJANOVNA

**TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARNING
INDIVIDUAL ISHLASHINI TASHKIL ETISH METODIKASI
(iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishlarida ingliz tilini o‘rganish misolida)**

13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan
D I S S E R T A T S I Y A**

Ilmiy rahbar: Xakimova Muxabbat Fayziyevna,
pedagogika fanlari doktori, professor

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH 3

I BOB. TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARNING INDIVIDUAL ISHLASHINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim tizimi sifatini boshqarishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik shartlari**Ошибка! Закладка не определена.**

1.2-§. Talabalarining individual ishlashini tashkil etish – pedagogik muammo sifatida **Ошибка! Закладка не определена.**

1.3-§. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida ingliz tili darslarida talabalarining individual ishlarini tashkil etishning hozirgi ahvoli.....**Ошибка! Закладка не определена.**

Birinchi bob bo'yicha xulosalar **Ошибка! Закладка не определена.**

II BOB. TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARNING INDIVIDUAL ISHLASHINI TASHKIL ETISH METODIKASI

2.1-§. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarining ingliz tili darslarida individual ishlashni tashkil etish shart-sharoitlari.....**Ошибка! Закладка не определена.**

2.2-§. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarining ingliz tili darslarida individual ishlashini tashkil etishning metodik tizimini ishlab chiqish**Ошибка! Закладка не определена.**

2.3-§. Talabalarining ingliz tili darslarida individual ishlashini tashkil etishning metodik tizimini amaliy joriy etish texnologiyalari**Ошибка! Закладка не определена.**

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar **Ошибка! Закладка не определена.**

III BOB. TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARNING INDIVIDUAL ISHLASHINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI

3.1-§. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish metodikasi**Ошибка! Закладка не определена.**

3.2-§. Tajriba-sinov ishlari natijalari va statistik tahlili**Ошибка! Закладка не определена.**

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar **Ошибка! Закладка не определена.**

XULOSALAR..... Ошибка! Закладка не определена.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI..... Ошибка! Закладка не определена.

ILOVALAR Ошибка! Закладка не определена.

KIRISH (falsafa fanlari (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli, ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanib borishi sharoitida raqobatbardosh iqtisodiyot talablariga muvofiq ravishda oliy ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablar tarkibida fanlarni, ayniqsa, chet tillarni individual o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun, avvalo, texnologiyalarni qo'llashdan maqsadni aniqlab olish kerak. Maqsad ta'lim jarayonini yaxshilash va har bir ta'lim oluvchiga salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatini berishga qaratilgan bo'lishi zarur. YUNESKO bu yilgi ta'lim strategik maqsadlari sifatida sun'iy intellektdan adolatli va inklyuziv foydalanish, ta'lim jarayoni va bilim olishni yaxshilash, davrga mos ko'nikmalarni rivojlantirish, ta'lim ma'lumotlaridan foydalanishning shaffofligi va nazorat qilinishini ta'minlashni belgilab olgan¹. Bugungi kunda jahonda raqamli va innovatsion texnologiyalarga ko'ra bilim olishni individual o'zlashtirish usullarini joriy etish, talabalarning ijodiy faolligini oshirish va o'z pozitsiyalarini namoyon etishga yo'naltirilgan loyihalarni amaliyotga tatbiq etish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda oliy ta'lim sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida talabalarning individual bilim olishi texnologiyalarini takomillashtirish hamda raqamli va innovatsion texnologiyalarga ko'ra samarali yondashuv (usul)larni ishlab chiqishga ustuvor darajada e'tibor qaratilmoqda. Bu borada talabalar bilish faolligini oshirishning didaktik modellarini raqamli ma'lumotlar va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida takomillashtirish, yangi ta'lim standartlarning ta'lim jarayoniga ta'siri samaradorligini innovatsion ta'lim

¹ Rahimov B. "Yangi O'zbekiston" gazetasining 2023 yil 1 noyabr, 272 son.

platformalarining ishlab chiqilishiga ko'ra oshirish, individual ishlash jarayonida ijodiy faollikni pedagogik va motivasion usullarga ko'ra rivojlantirish, ijodiy izlanish diagnostikasini analitik va monitoring tizimlari asosida tashkil etish, modulli ta'lim metodikasini pedagogik integratsiya va modulli formatdagi elektron ta'lim resurslari asosida takomillashtirish kabi yo'nalishdagi mavzular muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida ta'lim sifatini oshirish, moddiy-texnik bazasini ilg'or jahon tajribasiga ko'ra mustahkamlash, ta'lim jarayoniga innovatsion-pedagogik texnologiyalarni joriy etish, individual o'quv trayektoriyalarini pedagogik diagnostikalashni samarali yo'lga qo'yish kabilar yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida yurtimizda 2020-yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"² deb e'lon qilingan. Bu borada belgilangan vazifalarni amalga oshirishda talabalarning ingliz tili darslarida individual ishlashini tashkil etish samaradorligini kasbiy istiqbol maqsadlari asosida oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, imkoniyat-ehtiyoj korreksiyasiga ko'ra jarayonni samaradorligini oshirish; faoliyat jarayonida o'quv materiallarini maqsadli qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish asosida internet hizmatlarini qo'llash samaradorligini oshirish yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-

²<http://uza.uz/ru/politics/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01%20-2020>

tadbirlari to'g'risida"gi, 2017- yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.